FARZAND TARBIYASIDA OTA – ONA MA'SULIYATI: MUAMMO VA YECHIMLAR

Salaxiddinov Rashid Najmiddinovich
Toshkent viloyati, Olmaliq shahar kasb-hunar maktabi YOBIBDO'

Annotatsiya

Maqolada farzand tarbiyasida ota-ona ma'suliyati va javobgarligi tahlil qilingan bo'lib, bugun hayotimiz va dunyomiz tobora xavf-xatarlar ortib borayotgan davr va shu davrning o'ziga xos ijobiy va salbiy tomonlari, ta'lim-tarbiyadagi muammolar va ularning yechimlari bilan bog'liq turli taklif va tavsiyalar ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilib berilgan.

Kalit so'zlar: farzand, oila, ota-ona, ma'naviyat, ilm, aql, muammo.

Аннотация

В статье анализируются ответственность и ответственность родителей в воспитании детей, а сегодня наша жизнь и мир находятся во все более опасном периоде, и приводятся уникальные положительные и отрицательные стороны этого периода, проблемы в воспитании и пути их решения, связанные с этим различные предложения и рекомендации. анализируется с научно-теоретической точки зрения.

Ключевые слова: ребенок, семья, родители, духовность, наука, разум, проблема.

Annotation

The article analyzes the responsibility and responsibility of parents in raising children, and today our life and the world are in an increasingly dangerous period, and provides unique positive and negative aspects of this period, problems in education and ways to solve them, various suggestions and recommendations related to this. analyzed from a scientific and theoretical point of view.

Key words: child, family, parents, spirituality, science, mind, problem.

Farzand tarbiyasiga e'tiborli bo'lish, uning kelajagiga, jamiyat va Vatan kelajagiga e'tiborli bo'lish demakdir. Chunki bugungi yoshlar ertangi kunning egalaridir. Farzandning kelajakda kim bo'lishi, qaysi kasbni tanlashi ham ma'lum ma'noda oilaviy muhitga, ota – onaning ma'suliyatli tarbiyasiga bog'liq bo'ladi. Farzand tarbiyasida ota-onaning o'rni be'qiyos hisoblanadi.

Psixologiyada shunday ibora ishlatiladi: - "Farzand ota – onaning aksidir". Ya'ni ota – ona farzand tarbiyasida qanchalik e'tiborli va ma'suliyatli bo'lsa, ota – onaning o'zlari qanchalik tarbiyali va ma'naviyatli bo'lsa, ular tarbiya qilayotgan farzandlari ham shunchalik intizomli va yuksak didli, ilmli va ma'naviyatli bo'ladi.

Yana xalqimizda shunday maqol bor: - "Qush uyasida ko'rganini qiladi". Aqlli va ma'naviyatli, ilmli va salohiyatli farzandlarni, tartibli va maqsadli hamda o'ziga va oilasiga e'tiborli bo'lgan otalar va onalar yuzaga chiqaradi, tarbiya qiladi.

Shu o'rinda aytib o'tish joizki, bugungi kunda farzand tarbiya qilayotgan ota – onalarni quyidagi toifalarga bo'lish mumkin.

1. Buyuk aql egalari bo'lgan ota – onalar.

Bunday ota – onalar o'zaro oilaviy munosabatlarda "g'oyalari" haqida bahs-munozara qiladilar!

Buyuk aql egalari bo'lgan ota – onalar oila davrasida, yangidan – yangi g'oyalar haqida suhbatlashadilar. Ular o'z vaqtlarini farzand tarbiyasiga va farzandlari bilan birgalikda yangiliklar yaratishga bag'ishlaydilar. Ular farzand tarbiyasi bilan bog'liq o'z g'oyalari, o'z o'y-hayollari bilan band bo'ladilar. Ular o'z tasavvurlari orqali farzandlarining kelajaklari bilan bog'liq obrazlarni yaratadi. Ularning har – bir vaqti rejalashtirilgan. Ilmli va salohiyatli bo'lgan bunday ota – onalar farzand tarbiyasiga yetarlicha vaqt ajratadilar. Ular farzandlari bilan bog'liq muammoli vaziyatlarni

baqir – chaqir, urish janjallar bilan emas, murosa ilmi orqali, og‘ir va vazminlikda samimiy, mehrga yo‘g‘rilgan suhbatlar asosida bartaraf qiladilar. Ular o‘z farzandlaridan arazlamaydilar xafa bo‘lmaydilar. Ular bu hayotda hozir va shu yerda zavqlanib yashashni biladilar. O‘zlarini va boshqalarni hurmat qiladilar. Bu toifadagi ota - onalar bu dunyoda yashashni biladilar. Ular o‘zlariga hamda farzandlariga hotirjam va baxtli yashashni ravo ko‘radilar.

2. O‘rtacha aql egalari bo‘lgan ota – onalar.

Bu toifaga kiradigan ota – onalar o‘z farzandlari bilan o‘tkazadigan vaqtlarini “hodisalar” haqida bahs-munozara qilish bilan o‘tkazadilar. Bu bahs – munozaralar har doim ham ijobiy yakunlanmaydi.

O‘rtacha aql egalari bo‘lgan ota – onalar o‘zaro atrofida bo‘layotgan voqea-hodisalar to‘g‘risida chuqur suhbat qiladilar. Ular uchun bu bahs – munozaralarda g‘olib bo‘lish, o‘z fikrlarini to‘g‘riligini isbotlash juda muhim hisoblanadi. Bunday ota – onalarning voqea – hodisalar haqidagi bahs – munozaralari ba’zida janjallar bilan yakunlanadi. Bunday janjallar farzand tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Farzandlarida asabiylik, tushkun kayfiyat, yolg‘izlik hissi kabi sifatlarni shakllanishiga sabab bo‘ladi. Bu toifadagi ota – onalar yon atrofida va butun dunyoda bo‘layotgan vahimali voqea – hodisalarni eshitishga va ularni o‘z toifasidagilarga tezroq yetkazib, bahs – munozara qilishga shoshiladilar. Ularning o‘z farzandlariga vaqt topishlari qiyinroq kechadi.

Ular bu hayotda ko‘proq o‘z qo‘rquvlariga oshno bo‘lib yashaydilar. O‘z qo‘rquvlarini bartaraf qilish ustida ishlamaydilar. Bunday ota – onalar o‘z farzandlari bilan yaxshi til topisha olmaydilar. O‘z farzandlari bilan sirdosh bo‘lmaydilar. Ular o‘z hayotlari davomida farzandlari bilan ba’zi – ba’zida samimiy muloqot o‘rnatadilar. Lekin ularning farzandlari o‘z ota – onalari bilan bo‘lgan bu suhbatdan qoniqish hosil qilmaydilar. Ular o‘z ota – onalarining mehrlarini his qilmay yashaydilar. Doimo o‘zlariga sirdosh do‘st qidiradilar. Muammoli vaziyatlarga duch kelganda ota – onalariga aytishga cho‘chiydilar va o‘zlarini azoblab, yolg‘iz his qiladilar. O‘tkazilgan tajriba sinovlar shuni ko‘rsatadi – ki, bu toifadagi ota – onalarning farzandlari, katta bo‘lganda o‘z ota – onalarini samimiy mehr bilan emas, majburiyat asosida hurmat qiladilar.

3. Tor aql egalari bo‘lgan ota – onalar.

Bu toifaga kiruvchi ota – onalar “odamlar” haqida bahs-munozara qiladilar!

Tor aql egalari bo‘lgan ota – onalar farzand tarbiyasiga jiddiy e’tibor qaratmaydilar. Ular ko‘proq farzand tarbiyasi bilan emas, odamlar va ularning hayoti haqida suhbatlashish, bahs – munozaraga kirishish bilan shug‘ullanadilar. Ularga odamlarning hayoti juda qiziq.

Odamlar qanday yashaydi?

Odamlar qanday pul topadi?

Odamlar qanday kiyinadi?

Odamlar nima ish bilan band?

Kimlarningdir uy-joylari, yana kimlarningdir daromadining hisob-kitobi, yana qaysidir bir odamning yashash tarzi ular uchun doimiy suhbat maydonini tashkil qiladi. Bunday ota - onalarda yangi g‘oyalar bo‘lmaydi. Ular g‘oyalarni tushunmaydi, farqlamaydi. Ularda energiyaning asosiy kuchi boshqalarning hayotiga qaratilgan bo‘ladi. Go‘yoki, ular boshqalarning hayotini muhokama qilish uchun dunyoga kelgan. Lekin bunday muhokamalardan hech kimga, hech qanday foyda yo‘qligini tushunmaydilar, anglamaydilar. Xasad yoki havas bilan dunyodan o‘tib ketadilar.

Bu toifadagi ota – onalar farzand tarbiyasida eng past ko‘rsatkichni beradilar. Ular farzand tarbiyasiga alohida vaqt ajratmaydilar. Ularning vaqtlari doimo farzand tarbiyasiga qolganda yetmay qoladi. O‘zlarining bandligidan, oila tashvishlari bilan band bo‘lishidan, farzandlarini boqish uchun tinmasdan mehnat qilayotganidan lekin biri ikki bo‘lmayotganidan shikoyat qilib yashaydilar. Ular farzandlariga qo‘pol munosabatda bo‘lib, farzandlari bilan juda ko‘p konflektga boradilar va bu vaziyatlarni kuch bilan hal qiladilar. Bu kuch bilan hal qilingan vaziyatlar ijobiy samara bermasligini tushunmaganligi uchun takroriy vaziyatlarning qurboniga aylanadilar. O‘z

farzandlari bilan samimiy suhbat qilmaydilar. Farzand tarbiyasida haqoratli so‘zlardan juda ko‘p foydalanadilar.

Bu toifadagi ota – onalarning farzandalari bolaligida ham katta bo‘lganda ham nosog‘lom va asabiy holatda bo‘ladilar. O‘z ota – onalari bilan faxrlanmaydilar. Bu toifadagi ota – onalarning farzandlari katta bo‘lganlarida juda kam foizi o‘z o‘stida ishlab, hayotlarini o‘zgartiradilar. Aksariyat qismi o‘z ota – onasining qurbonlariga aylanadilar.

Shu o‘rinda savol tug‘iladi. O‘ylab ko‘ringchi siz qaysi toifaga kirasiz?

Insonlar agarda chin dildan o‘z ustilarida ishlasalar, albatta o‘zi hoxlagan toifaga ko‘tarilib, shu toifa insonlaridek yashaydilar.

Hayotda ota – onalarning qanchadan – qancha vaqti, umri teleseriallar ko‘rish, samarasiz behuda suhbatlar, g‘iybatlar bilan o‘tib ketmoqda. Serial vaqtini, qachon boshlanishi-yu, qachon tugashini esda saqlab qoladi. Farzandlari bilan shug‘ullanishga kelganda, vaqti yo‘qligidan, hayot tashvishlari sabab, xotirasi past bo‘lib borayotganidan, sog‘ligi yomonlashayotganidan, yetishmovchiliklardan nolinadi.

O‘sha ko‘rayotgan teleseriallari, samarasiz g‘iybatlari sabab umrlari behuda o‘tayotganliklarini, farzandlari baxtsiz bo‘lib yashayotganini anglamaydilar. O‘sha muammolarga to‘la seriallarni ko‘rish va maqsadsiz yashash tarzi orqali o‘z energitakasini negativlarga to‘ldirayotganini, o‘sha muammolar girdobiga kirib ketayotganini tushunib yetmaydilar.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, bugungi rivojlanayotgan jamiyatda har – bir ota – ona o‘z ustida ishlab, o‘z kamchiliklarini bartaraf etib, o‘zlariga va farzandlariga baxli hayot va baxtli kelajakni sovg‘a qilmog‘i kerak

WORDLY KNOWLEDGE